

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

UZOQOV UMID TOLIBOVICH

**BAZALT IPLARIDAN OLOVBARDOSH TO‘QIMALAR YARATISH
VA MOKISIZ TO‘QUV DASTGOHIDA ISHLAB CHIQRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi
va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor
of philosophy (PhD) on technical sciences**

Uzoqov Umid Tolibovich

Bazalt iplaridan olovbardosh to‘qimalar yaratish va mokisiz to‘quv dastgohida
ishlab chiqarish 3

Узоков Умид Толибович

Создание огнеупорных тканей из базальтовых нитей и их выработка на
бесчелночном ткацком станке. 23

Uzoqov Umid Tolibovich

Creation of fire-resistant fabrics from basalt threads and production on a
shuttleless loom. 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 46

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

UZOQOV UMID TOLIBOVICH

**BAZALT IPLARIDAN OLOVBARDOSH TO‘QIMALAR YARATISH VA
MOKISIZ TO‘QUV DASTGOHIDA ISHLAB CHIQRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi
va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3718 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ttyesi.uz) va «ZiyoNet» Axborot -ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Daminov Askarali Davlatovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Matismailov Saypila Lalashbayevich
texnika fanlari doktori, professor

Erkinov Zokirjon Erkinboy o'g'li
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 – raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «18» mart soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (998 71) 253-06-06, (998 71) 253-08-08, faks: (998 71) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 223 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+998 71) 253-06-06, (+998 71) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «5» mart kuni tarqatildi.
(2025 yil «5» martdagi № 223 raqamli reestr bayonnomasi).



X.H. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh. Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

Handwritten signature in blue ink.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda raqobatbardosh mahsulotlarning assortimentini kengaytirish, tabiiy xomashyolardan foydalanib yuqori ekologik mahsulotlarni ishlab chiqarish, yangi turdagi xomashyolar va ishlov berish usullarini qo‘llash, to‘qimachilik mahsulotlarining sifatini yaxshilash jadal sur‘atlarda oshib, soha rivojlanishida yetakchi o‘rinlarni egallamoqda. Dunyo miqyosida to‘qimachilik va yengil sanoat bozorida 2020 yilga nisbatan ishlab chiqarish qiymati 2025 yil oxirigacha 26,2 foizni, o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati esa 6,2 foizni tashkil etishi, jumladan texnik himoya materiallari bozori 2022 yildan 2029 yilgacha 8,8% ga o‘sishi bashorat qilinmoqda. Shu jihatdan, turli aralash tarkibli to‘qimachilik mahsulotlarining fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilash va sifatini oshirish, xomashyo sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga innovatsiyalarni joriy etish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda tayyor sifatli mahsulot ishlab chiqarish texnika va texnologiyasini takomillashtirish, ularni ilmiy asoslarini yaratish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, aralash tolali iplardan maishiy va texnik to‘qimalarni ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada, xususan, to‘qima sifati va raqobatbardoshligini oshiruvchi samarali texnologiyalarni yaratish, to‘qima ko‘rsatkichlarini optimallashtirish usullarini ishlab chiqish, to‘qimachilik korxonalarida yuqori samarali texnik vositalar va texnologiyalarni yaratishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda to‘qimachilik mahalliy xomashyodan sifatli, raqobatbardosh va eksportga yo‘naltirilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish yuzasidan keng kamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida, jumladan, “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish...” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, xususan, mahalliy xomashyolardan samarali va to‘liq foydalanish va yuqori, qo‘shimcha qiymatli, tayyor to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsuloti tayyorlashga mo‘ljallangan ishlab chiqarishni integratsiya qilishni nazarda tutuvchi rivojlanishning klaster modelini amalga oshirish hisobiga import o‘rnini bosuvchi va eksportbop, raqobatbardosh, sifatli to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» Farmoni, 2022 yil 21 yanvar PQ-53-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Texnik toʻqimalarni loyihalash, ularni toʻquv dastgohlarida ishlab chiqarish va toʻquv dastgohlarining optimal ish rejimini oʻrnatishni tadqiq etish bilan xoriyda H Jamshaid, R Mishra, J Militky, A.P. Grechuxin, N.V. Yegorov kabi olimlar shugʻillanishgan. Texnik toʻqimalarni tuzilishi va unlarning fizik-mexanik xossalarini yaxshilash boʻyicha A.A. Aslanyan, V.A. Ribin, N.K. Romanichev, D.V. Popovskiy, V.Yu. Oxloenko va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Bazalt iplaridan texnik toʻqimalar yaratish, toʻquv dastgohlarida ishlab chiqarish boʻyicha tadqiqotlar Fabrizio Sarasini, Jacopo Tirillo, Marco Valente, Luca Ferrante, Salvatore Cioffi, Salvatore Iannace, Luigi Sorrentino va boshqalar tomonidan oʻtkazilgan.

Respublikamizda toʻquv-trikotaj dastgohlarida tabiiy va kimyoviy tolalardan toʻqimalarni ishlab chiqarish va dastgoh parametrlarini asoslash boʻyicha tadqiqotlar X.A. Alimova, R.Z. Burnashev, J.N. Akbarov, E.Sh. Alimbaev, M.M. Muqimov, F.A. Veliyev, A.D. Daminov, S.A. Xamrayeva, P.S. Siddikov, B.K. Xasanov, B.X. Boymuratov, S.S. Raximxodjayev, O.A. Axunbabayev, D.N. Kadirova, N.R. Xonxodjayeva, G.N. Valiyev, U.R. Uzakova, O.A. Ortikov, A.M. Daminov, H.Yu. Rasulov, R.M. Yangiboyev va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Shu bilan birga, olimlar va mutaxassislar tomonidan texnik toʻqimalarni ishlab chiqarish boʻyicha ilmiy asoslangan yondashuvlar va erishilgan muhim yutuqlarga qaramay, olovbardosh toʻqimalar ishlab chiqish muammosi hanuz mavjudligi, belgilangan xususiyatlar boʻyicha loyihalangan texnik toʻqimalarni ishlab chiqarish masalalari yetarlicha hal etilmaganligi, bu sohada keng koʻlamli tadqiqotlar olib borish bugungi kunda ham dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi:

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent toʻqimachilik va engil sanoat institutining IZ-201910111 raqamli “Mahalliy bazalt iplaridan toʻqimachilik materiallarini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish” innovasion loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi - bazalt iplaridan olovbardosh toʻqimalar yaratish va mokisiz toʻquv dastgohlarida ishlab chiqarish texnologiyasini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy bazalt iplarining fizik-mexanik va kimyoviy xossalarini oʻrganish;

bazalt iplaridan talab qilingan xususiyatlari asosida olovbardosh toʻqimalarni loyihalash;

toʻqima tuzilishi parametrlari bilan uni zamonaviy toʻquv dastgohlarida ishlab chiqarishning texnologik parametrlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrnatish;

mokisiz toʻquv dastgohlarida bazalt iplaridan texnik maqsadlarda qoʻllaniladigan toʻqima ishlab chiqarish intensivligini baholash;

bazalt iplaridan to'quv dastgohida to'qima olish uchun optimal parametrlarni aniqlash uchun eksperimental tadqiqotlar o'tkazish;

bazalt iplaridan ishlab chiqarilgan to'qimalarni fizik-mexanik xossalari va tuzilish parametrlarini o'rganish;

bazalt iplaridan ishlab chiqarilgan to'qimalarni amaliyotga joriy qilinishidan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida mokisiz to'quv dastgohi, tayyorlov bo'limi uskunalari, bazalt to'qimachilik iplari va to'qimalari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida texnik to'qimalarni mahalliy bazalt to'qimachilik iplaridan ishlab chiqarish texnologiyasi olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanikaning ip nazariyasi, to'qimalar tuzilishi tadqiqida analitik geometriya, zamonaviy o'lchash, baholash, solishtirish, matematik statistika va hisoblash matematikasining tajriba natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnik to'qimalar assortimentini kengaytirish imkonini beruvchi iste'mol xususiyatlari talablari asosida berilgan xomashyo turi bo'yicha to'qima zichligini oshirish orqali yopqich to'qimalarni loyihalash usuli ishlab chiqilgan;

yopqich to'qimalarning tuzilishi va fizik-mexanik xususiyatlarini inobatga olgan holda mahalliy bazalt iplaridan texnik maqsadlarda qo'llaniladigan yangi olovbardosh to'qima olish texnologiyasi yaratilgan;

bir qatlamli yopqich to'qimani to'quv dastgohida ishlab chiqarish jarayoni faktorlarining tanda va arqoq iplari tarangligiga ta'siri qonuniyatlari tajriba natijalarini qayta ishlash asosida ishlab chiqilgan;

berilgan olovbardoshlik xususiyatlari asosida yopqich to'qimani to'quv dastgohida shakllantirish texnologik omillarining muqobil qiymatlari muqobil regression modellarni tahlil qilish asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy bazalt iplaridan yangi olovbardosh to'qima mavjud to'qimalar asosida loyihalangan;

bazalt iplaridan olovbardosh to'qima ishlab chiqarish uchun ATPR to'quv dastgohi takomillashtirilgan;

olovbardosh to'qimalarni to'quv dastgohida shakllanish jarayonida tanda iplarining deformatsiya holati aniqlangan;

olovbardosh to'qimalarni ishlab chiqarish jarayonini barqarorlashtiruvchi muqobil texnologik ko'rsatkichlar aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning mosligi, aprotatsiya va qo'llash natijalarining ijobiyligi, ularning mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyalarga mantiqan muvofiq kelishi, hisobiy ishlarda standartlashtirilgan usul va zamonaviy vositalardan foydalanilganligi, olingan natijalarni real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O'tkazilgan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati belgilangan xususiyatlarga ega bazalt iplaridan

olovbardosh texnik to'qima loyihalaniib, to'quv dastgohida shakllanish ko'rsatkichlari ishlab chiqilganligidan iborat. Shuningdek olovbardosh to'qimalarning asosiy xususiyatlari va tuzilish parametrlari o'rganilib, bu ularni turli to'quv o'rilishlari bilan ishlab chiqarishni prognoz qilish imkonini yaratishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olovbardosh texnik to'qima yaratilganligi, yong'inni o'chirish samaradorligi yuqori bo'lgan olovga chidamli yangi texnik to'qima assortimenti ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bazalt iplaridan yangi olovbardosh texnik to'qima yaratish bo'yicha erishilgan natijalar asosida:

mahalliy xomashyosi bazalt iplaridan olovbardosh texnik to'qimalar olish texnologiyasi XK "Rihsitillo gazmol servis" va XK "Mitti" to'quv korxonalarida ishlab chiqarishga joriy qilindi ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2023 yil 12 iyuldagi 03/25 1505-son ma'lumotnomasi). Natijada mahalliy bazalt iplaridan olingan yopqich to'qimaning uzilish kuchi 30%ga, olovbardoshligi 20%ga oshishiga va dastgohdagi uzilishlar soni 18%ga kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, 3 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 103 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati aks ettirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Olovbardosh to'qimalarni tuzilishi, xususiyatlari, loyihalash va ularni to'quv dastgohida ishlab chiqarishga oid adabiyotlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida to'qimani loyihalash bo'yicha izlanishlar, yong'indan himoyalovchi to'qimalar tadqiqi, to'qimalarning tuzilishi va xususiyatlarini o'rganish va to'qima shakllanish texnologiyasini bashorat qilish mezonlari bo'yicha ilmiy ishlarni tahlil qilishga e'tibor qaratilgan.




1-rasm . Olovbardosh to'qimalarni ishlab chiqarish uchun xomashyo turlari

Jahon to'qimachilik sanoatida tabiiy va sintetik tolalardan maxsus olovbardosh to'qimalarning keng assortimenti mavjud bo'lib, ular: shtapelli ip, uzluksiz ip va monofilament iplar yordamida turli sohalar talablariga javob beradigan xususiyatlari bo'yicha ishlab chiqarilmoqda. Olovbardosh to'qimalarni ishlab chiqarish uchun xomashyo turlari 1-rasmda keltirilgan.


Yuqorida eslatib o'tilgan ilmiy ishlarning tahlili asosida yangi ishlab chiqilgan yong'inga qarshi va issiqlikka bardoshli to'qimalar uchun standart ko'rsatkichlar qiymatlari aniqlandi. Dissertatsiya ishining asosiy maqsad va vazifalari belgilandi.

Dissertatsiyaning "**Bazalt to'qimalarini loyihalash usulini ishlab chiqish**" deb nomlangan ikkinchi bobida olovbardosh to'qimalar va ularga qo'yiladigan talablar hamda bazalt iplarining olinishi va fizik-mexanik xususiyatlari o'rganilgan. Berilgan xomashyo turiga muvofiq olovbardosh to'qimalarni loyihalash masalalari ko'rilgan va bob bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Yopqichlar yonmaydigan olovbardosh to‘qimalardan tayyorlanadi. Ushbu to‘qimalar yong‘inga chidamli, olovbardosh xomashyodan foydalangan holda zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqariladi. Olovga chidamli to‘qimalar, hatto ochiq olov ta’sirida ham, yonmaydi va olovning yanada tarqalishini oldini oladi.



Kvarts to‘qima



Silikat to‘qima



Shishatolali to‘qima



Bazalt to‘qima



Uglerod to‘qima



Asbest to‘qima



Aramid to‘qima



Kremnizim to‘qima



Poliester to‘qima

2-rasm. Olovbardosh to‘qimalar

Shu bilan birga, to‘qimalar mukammal issiqlik izolyatsiyasi qobiliyatiga ega. Bunday to‘qimalar ochiq alangani tez va samarali o‘chirish imkonini beradi. Yuqori haroratli to‘qimali kabel va yonilg‘i kanallarini himoya qilish, yong‘inga qarshi o‘rash va murakkab materiallarda keng qo‘llaniladi (2-rasm).



3-rasm. Yong‘in o‘chiruvchi yopqichlar

Bazalt to‘qimalari yuqori mustahkamlikka ega, yonmaydi va olovbardosh, +1000 °C gacha o‘z yaxlitligini saqlaydi, elektromagnit nurlanishga, namlikka, korroziyaga chidamli, kimyoviy (kislotali, ishqoriy muhit va tuzlar) ta‘sirga barqaror hamda elektroizolyatsion xususiyatga egadir. Shisha ipidan olingan to‘qima va mahsulotlarga nisbatan ularning uzilish mustahkamligi ko‘rsatkichi 25% ortiq, ishchi holat harorat diapazoni –260 °C dan +820 °C gacha (maksimum +1000 °C). Shuning uchun bazalt tolasidan tayyorlangan matolar ochiq alangani samarali o‘chiradi (3-rasm).

Bazalt iplari turli kimyoviy moddalarning birikmalaridan iborat bo‘lib, uning kimyoviy tarkibi: SiO₂ 52,8%; TiO₂ 0,5%; Al₂O₃ 17,2%; Fe₂O₃ 8,9%; MgO 6,3%; CaO 7,1%; Na₂O 2,2%; K₂O 1,6%.

Tadqiqotlarimiz davomida olovbardosh to‘qimalarni mahalliy bazalt iplaridan ishlab chiqarishimiz uchun uning fizik-mexanik xususiyatlarini o‘rganamiz.

G‘altakdagi to‘plam (monofilament) diametri 15 mikron bo‘lgan chiziqli zichligiga qarab 250 tadan 4000 tagacha bo‘lgan tolalardan iborat. Tajribalar diametri 20 mikrondan 1 mikrongacha bo‘lgan tolalarni sinab ko‘rish imkonini beruvchi TTYSI “To‘qimachilik materialshunosligi” kafedrasida mavjud WDW-5E uskunasi maxsus sinov qurilmalarida o‘tkazildi (4-rasm).

Iplarning uzilish kuchi ip uzilishdan oldin cho‘zilganida bardosh bera oladigan eng katta kuchdir. Har xil chiziqli zichlikdagi iplarning uzilish kuchini solishtirish uchun nisbiy uzilish kuchi, ya‘ni N/teks, bilan ifodalangan chiziqli zichlik birligidagi uzilish kuchi ko‘rsatkichidan foydalaniladi. Uzilishdagi cho‘zilishi (absolyut) uzilish vaqtida cho‘zilgan ip uzunligining oshishi, mm bilan o‘lchanadi.

Uzilish kuchi ehtimollik zichligi

$$f_v(P) = \begin{cases} \frac{k}{\lambda} \cdot \left(\frac{P}{\lambda}\right)^{k-1} \cdot \exp\left[-\left(\frac{P}{\lambda}\right)^k\right], & \text{bunda } P \geq 0 \\ 0 & \text{bunda } P < 0 \end{cases} \quad (1)$$

bilan normal taqsimot qonuniga bo‘ysunadi. Uzilish kuchi ehtimollik zichligi


$$P = \int_0^{\infty} P \cdot f_v(P) dP, \quad (\overline{\sigma_p})^2 = \int_0^{\infty} (P - \bar{P})^2 \cdot f_v(P) dP \quad (2)$$

(2) bilan Veybull-Gnedenko taqsimot qonuniga bo‘ysunadi. Tarqatish parametrlarini tenglamalar tizimidan topish mumkin:


$$P = \int_0^{\infty} P \cdot f_v(P) dP, \quad (\overline{\sigma_p})^2 = \int_0^{\infty} (P - \bar{P})^2 \cdot f_v(P) dP \quad (3)$$

Ushbu ifodani chiziqli yechimidan quyidagilarni olamiz $k = 16,45$; $\lambda = 59,77$.

Puasson statistikasining hisoblangan qiymati $\chi^2 = 4,96 < \chi_{kr}^2$, tajribaviy ma‘lumotlar.



4-rasm. Bazalt iplarining nisbiy uzilish kuchini aniqlovchi WDW-5E uskunasi



5-rasm. Ipning uzilish kuchini eksperimental ma'lumotlarga ko'ra taqsimlanish zichligi: 1 - empirik, 2 - nazariy normal, 3-Veybull nazariyasi.

Bazalt ipining uzilishi paytida maksimal nisbiy cho'zilish o'lchovlari orasida e'tibordan chetda qolishi aniqlandi. Shundan kelib chiqqan holda, bazalt iplarini nisbiy uzilish kuchini aniqlashdagi ipga berilgan taranglik kuchi ip bo'yicha taqsimlanishi Veybull-Gnedenko nazariyasiga ko'ra aniqlandi (5-rasm).

1-jadval

Turli chiziqli zichlikdagi iplarning uzilish kuchi

Chiziqli zichligi, teks	Uzilish kuchi, N
80	53
150	100
300	200
600	400

Xulosa qilib, bazalt iplari pishiqligi to'quv dastgohida to'qima to'qish jarayonidagi ipga ta'sir etuvchi barcha kuchlarga chidamli. Demak, to'quv dastgohida to'qima olish imkoniyati mavjud (1-jadval).

Yuqorida tekshirilgan mahalliy bazalt iplarining chiziqli zichligi $T=80$ teks bo'lgan iplardan zamonaviy to'quv dastgohida to'qima ishlab chiqarish uchun to'qimalar loyihalandi.

2-jadval

Belgilangan sirt zichligi, tuzilish fazasi tartibi va to'qimani tolali material bilan to'ldirilishiga asoslangan dastlabki ma'lumotlar

Parametrlarning nomi va belgilanishi	Qiymatlari
Xom to'qimaning yuza zichligi, $q'_x, g/m^2$	200
Ip diametrlarining nisbat koeffitsienti, K_d	1,0
Tola turiga bog'liq koeffitsient tanda C_t arqoq C_a	1,45 1,45
O'rilish turi	Polotno
O'rilish rapporti tanda R_t arqoq R_a	2 2

2-jadvalning davomi	
Har bir ip uchun o'rtacha kesishishlar soni tanda t_t arqoq t_a	2 2
To'qimadagi ipning ko'ndalang kesimi shakli	ellips
Tanda iplari ezilish koeffitsienti vertikal η_{tv} gorizontal η_{tg}	0,85 1,05
Arqoq iplari ezilish koeffitsienti vertikal η_{av} gorizontal η_{ag}	0,93 1,05
To'qimalarning tuzilishi fazasining tartibi F_t	4,8
To'qimani tolali material bilan to'ldirish koeffitsientlari tanda bo'yicha K_{tt} arqoq bo'yicha K_{ta}	0,761 0,669

Hisoblangan zichliklarni tahlil qilamiz. To'qimaning tanda va arqoq bo'yicha zichliklari qabul qilinadi. Tanda bo'yicha $P_t = 105$ ip/dm; arqoq bo'yicha $P_a = 100$ ip/dm (2-jadval).

Xom to'qimaning yuza zichligi:

$$q_{xom} = \frac{P_t T_t}{100 - a_t} + \frac{P_a T_a}{100 - a_a} = \frac{119,54 \cdot 80}{100 - 7,21} + \frac{117,63 \cdot 80}{100 - 8,85} = 206,3 \text{ g/m}^2$$

Olingan to'qimaning sirt zichligi mavjud to'qima bilan solishtirildi. Loyihalangan to'qima uchun $q_c = 206 \text{ g/m}^2$ sirt zichligining hisoblangan qiymati mavjud to'qima bilan to'g'ri keladi, to'qimaning sirt zichligi 2-jadvalda keltirilgan. Loyihalangan to'qima olovbardosh to'qima talablarini qondiradi.

Dissertatsiyaning **“Bazalt ipidan to'qimalar ishlab chiqarishda tanda va arqoq iplarining tarangligi va deformatsiyasi bo'yicha tahliliy tadqiqotlar”** deb nomlangan uchinchi bobida bazalt iplarini tandalash jarayoni texnologik omillari tadqiqi, to'quv dastgohi tuzilishi va to'qima olish imkoniyatini o'rgansih natijalari, bazalt iplaridan to'quv dastgohida to'qima to'qishda tanda iplari tarangligi tadqiqi, bazalt iplaridan olovbardosh to'qima ishlab chiqarishning muqobil texnologik omillarini aniqlash imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Tandalash jarayoniga qo'yiladigan asosiy talablardan biri - barcha iplar uchun bir tekis va miqdori bo'yicha bir xil taranglikni hosil qilishdan iborat. Taranglik ortib ketganda iplarning xususiyatlari yomonlashadi, taranglik kam bo'lganda esa hosil bo'layotgan o'ramning zichligi kamayib ketadi. Taranglik notekis bo'lgan holda hosil bo'layotgan o'ramning yuzasi buziladi, ya'ni uning yuzasida botiq va qabariq (bo'rtib chiqqan) joylar hosil bo'ladi. Buning natijasida to'quv dastgohida ip uzilishlari soni ko'payadi.


Tadqiqotimizda mahalliy homashyo bo'lgan bazalt iplaridan to'quv g'altagi tayyorlash uchun Benninger pitalab tandalash mashinasida tandalash jarayonida tandalash tezligining ip tarangligiga ta'siri o'rganildi (6-rasm).



6-rasm. Bazalt iplarini Benninger pitalab tandalash mashinasida tandalash

Tandalash jarayonining tezligini ortishi jarayondagi iplar uzilishining ko'payishiga olib keladi. Ya'ni, buning natijasida jarayondagi iplarning tarangligi ortadi va bu iplarning uzilishiga olib keladi.

7-rasmda chiziqli zichligi 80 teks bo'lgan bazalt iplarini pitalab tandalash jarayonidagi tezlik va taranglikning o'zgarishiga bog'liq uzilishlarni grafigi keltirilgan.



7-rasm. Tezlik va taranglikning ip uzilishlariga ta'siri

Tajriba natijasida tandlash tezligining ortishi ip tarangligiga ta'sir etiishi va uning ko'payib borishi aniqlandi. Taranglik va tezlikka bog'liq ip uzilishlari soni 200 m/mindan keyin keskin ko'payib ketishini ko'rish mumkin.


Xulosa qilib, 80 teksli bazalt iplarini pitalab tandalash jarayonida muqobil tezlik 250 m/min va taranglik miqdorlarini ipning chiziqli zichligiga mos ravishda 20 sN qilib belgilash va uni butun jarayon davomida bir me'yorda ushlab turish tavsiya etiladi.

Bazalt iplaridan olovbardosh tajribaviy namunalari ATPR to'quv dastgohida olinib, to'qimalarni shakllanishida tanda iplarining tarangligi va deformatsiyasi, to'quv jarayonining to'qima xususiyatlariga ta'siri tadqiq etildi (8-rasm). Shuning uchun, tanda iplarining tarangligi va deformatsiyasini dastgohni taxtlash ko'rsatkichlariga va to'qima tuzilishiga bog'liqligini aniqlash katta amaliy ahamiyatga ega. Bu esa yangi to'qima ishlab chiqarish shartlarini oldindan aytishga imkon beradi.



8-rasm. ATPR to‘quv dastgohida bazalt to‘qimasini to‘qish

9-rasmda to‘quv dastgohining bosh valining bir aylanishida tanda va arqoq iplari tarangligi grafigi keltirilgan bo‘lib, unda uchta xususiyatli davrni ajratib ko‘rsatish mumkin. To‘quv dastgohining dinamik holatidagi ossillogramma grafigiga asosan uchta xususiyatli nuqtani ajratamiz: 1 - nuqtada tanda ipining o‘rta holatdagi tarangligi; 2 - jipslashtirish vaqtidagi taranglik; 3 - homuza hosil bo‘lgandagi taranglik.




9-rasm. To‘quv dastgohining dinamik holatida tanda va arqoq iplari tarangligi grafigi

Zamonaviy to'quv dastgohida bazalt to'qimalarini ishlab chiqarish jarayonidagi tanda iplari tarangligi tenzogrammasi 10-rasmda keltirilgan.



10-rasm. Bazalt iplaridan olovbardosh to'qimani ishlab chiqarishda tanda iplarining taranglik tenzogrammasi

To'quv dastgohidagi tanda iplarining dinamik holatdagi tarangligi bo'yicha o'rnatilgan qurilmalar asosida olingan natijalarni tahlil qilamiz (11-rasm).



11-rasm. Tanda iplari tarangligi gistogrammasi

Gistogrammaga asosan loyihalananayotgan bir qatlamli to'qimalarni to'quv dastgohida shakllanish jarayonida to'quv o'rilishlari ip tarangligiga sezilarli ta'sir etishini ko'rish mumkin, ayniqsa homuza hosil qilish jarayoni tarangligi yuqori qiymatlarga ega. Bunda 1 namuna uchun tanda iplarining jipslashtirish davridagi tarangligi $F_{jips}=99,44$ sN, homuza hosil qilishda $F_{xom}=122$ sN, va o'rta holat davrida $F_{or,h}=67,48$ sN iborat.

Ko'rinib turibdiki, polotnoda homuza hosil qilish jarayonida ip tarangligi 122,32-123,42 sN, sarja namunasida mazkur jarayonda ip tarangligi 126,6-127,6 sN, va noto'g'ri satin (8 namuna) bo'yicha taranglik 120,56 sN tashkil etadi. Olingan natijalar

asosida polotno va uning hosilalari asosida ishlab chiqarilgan 80 teksli basalt ipli to'qima tarangligi sarja va uning hosilalari bilan olingan namunalar tarangligiga nisbatan 4% yuqori, bu esa, o'z navbatida, iplarning mexanik xususiyatlariga salbiy ta'sir etadi. To'quv dastgohining ishlash sikli davomidagi minimal taranglik 1 namuna uchun 67 sN va uzish kuchining 8 % ini tashkil qiladi.

Mahalliy xomashyo bazalt iplaridan olovbardosh to'qima ishlab chiqarishda to'quv dastgohining unumdorligi ko'plab omillarga bog'liq. Bu omillarga iplarning tolaviy tarkibi, dastgohning taxtlash omillari, to'qimaning zichligi, arqoq ipini homuzaga tashlash usuli, to'quv dastgohini sozlash omillari kiradi.

Yangi olovbardosh to'qima namunalarini ishlab chiqarish ATPR to'quv dastgohida amalga oshirildi. Tanda va arqoq iplari uchun 80 teksli bazalt ipi ishlatildi. Bu namunada tanda iplar soni 600 ta, ishlab chiqarilgan xom to'qima eni 100 sm. To'quv dastgohining qolgan ko'rsatkichlari o'zgarmas qoldi.

Kiruvchi faktorlar sifatida X_1 – tanda ipining tarangligi, X_2 – skaloning holati, X_3 – o'rta holat miqdori olindi. Ularning kodlari va o'zgarish oraliqlari 3-jadvalda keltirilgan. Chiquvchi ko'rsatkich sifatida to'quv dastgohidagi tanda ipi uzilish ko'rsatkichlari olindi. Bu sifat ko'rsatkichiga kiruvchi faktorlar ta'sirini tajriba asosida ko'p omilli regressiya modeliga muvofiq tahlil qilindi.

3- jadval

Tajribani rejalashtirish sharti

Omillar	O'zgarish sathi			Interval
	-1	0	+1	
X_1 - Tanda ipining tarangligi, sN	15	20	25	5
X_2 - Skaloning holati, mm	-5	0	+5	5
X_3 - O'rta holat miqdori, mm	15	25	35	10

Buning uchun rejalashtirish matritsasi asosida har bir sharoitda 3 marotaba takroran tajribalar o'tkazamiz (4- jadval). Bu holda, takrorlanishlar soni $m=3$ ni hisobga olsak, umumiy tajribalar soni $N \cdot m=24$ bo'ladi.


4- jadval

Eksperiment natijalari

U	x_0	Omillar							Takrorlanishdagi ipning uzilish miqdori, uz/m			
		x_1	x_2	x_3	x_1x_2	x_1x_3	x_2x_3	$x_1x_2x_3$	u_1	u_2	u_3	$U_{o'rt}$
1	1	-1	-1	-1	1	1	1	-1	0,606	0,607	0,605	0,606
2	1	1	-1	-1	-1	-1	1	1	0,606	0,605	0,603	0,605
3	1	-1	1	-1	-1	1	-1	1	0,535	0,534	0,537	0,535
4	1	1	1	-1	1	-1	-1	-1	0,506	0,507	0,505	0,506
5	1	-1	-1	1	1	-1	-1	1	0,575	0,572	0,574	0,574
6	1	1	-1	1	-1	1	-1	-1	0,586	0,583	0,584	0,584
7	1	-1	1	1	-1	-1	1	-1	0,706	0,707	0,705	0,706
8	1	1	1	1	1	1	1	1	0,548	0,546	0,547	0,547

Regressiya tenglamasini oxirgi ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$y_R = 0,583 - 0,022x_1 - 0,006x_2 + 0,019x_3 - 0,066x_1x_2 + 0,067x_1x_3 + 0,084x_2x_3 + 0,066x_1x_2x_3,$$



12-rasm. Olingan izochiziqar kesishmasi

Kiruvchi omillar orqali izochiziqar kesishmasidan to‘quv dastgohining optimal ishlashi uchun qiymatlarni aniqlashimiz mumkin (12-rasm). Bunda 3-variantda, ya'ni:

1. Tanda ipi tarangligi, $X_1=25$ cN;
2. Skaloning holati, $X_2=5$ mm;
3. O‘rta holat miqdori, $X_3=15$ mm bo‘lganda to‘quv dastgohida uzilishlar soni eng kam $Y_r=0,583$ uzuq/m bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**Olovbardosh to‘qimalarning fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida bazalt to‘qimalarining olovbardoshligi, havo o‘tkazuvchanligi, uzilish kuchi, issiqlikbardoshligi tadqiq etilib, bazalt iplaridan olovbardosh to‘qima ishlab chiqarish texnologiyasini amaliyotga joriy etishdan olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatgichlari hisoblangan.

Ishda olovbardosh to'qimalarga qo'yilgan talablarni va uning xususiyatlarini saqlab qolgan holda, tabiiy mahalliy bazalt xomashyosidan foydalanib, olovbardosh to'qimalar assortimentini kengaytirish va uni ishlab chiqarish vazifalari bajarildi.

Quyida olingan bazalt namunalarini olovbardoshligini tadqiq etamiz. Tadqiqot uchun texnik bazalt to'qimasi (ochiq jigarrang rang) olindi.

Tadqiqot o'tkazish uchun 220x170 mm o'lchamdagi ikkita namuna tayyorlandi. Mato turli sirlarga ega, chunki namunalar har ikki tomondan tekshiriladi. Sinovdan oldin namunalar (20) °C haroratda, nisbiy namlik (49)% va 711 mm atmosfera bosimida saqlanadi. 24 soatdan so'ng har bir namuna, shartli atmosferadan chiqarilgandan so'ng, 3 daqiqa ichida sinovdan o'tkazilishi yoki sinovdan oldin yopiq idishga joylashtirilishi kerak. Tadqiqotlar 15 soniyagacha bo'lgan olov ta'sir qilish vaqtlari uchun o'tkazildi (gaz gorelkasi) (13-rasm. № 4, 5).




Фото №4



Фото №5

13-rasm. Bazalt to'qimalarini olovbardoshligini tekshirish

Xulosa qilib, bazalt to'qimasi olovga chidamli ekanligi tasdiqlandi. Bu to'qimalarni yong'in xavfsizligi xodimlari uchun olovni o'chirish maqsadida, shuningdek ustki kiyim, qo'lqop va boshqa maqsadlarda qo'llash mumkin.

5-jadvalda to‘qima namunalarining fizik-mexanik xususiyatlari keltirilgan.

5-jadval

To‘qima namunalarining fizik-mexanik xususiyatlari

Namunalar	Uzish kuchi, N		To‘qimaning to‘ldirilish foizi, %			Havo o‘tkazuvchanligi, (sm ³ /sm ² ·sek)	Issiqlikbardoshligi, m ² K/Vt	Elektrlanishi, V
	Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq	Umumi y			
Polotno	128	260	93,271	93,271	99,547	3,24	0,033	638
Tanda reps	600	540	93,24	95,571	99,701	2,5	0,038	717
Arqoq reps	900	400	93,24	95,571	99,701	5,07	0,035	274
Rogojka 4/4	400	1000	93,24	99,456	99,963	4,53	0,027	598
Sarja 1/3	410	550	93,24	94,017	99,596	2,57	0,042	305
Sarja 2/2	370	510	93,24	95,571	99,701	8,91	0,04	196
Sarja 4/4	360	700	93,24	96,348	99,753	2,37	0,045	158
Krep	600	1000	93,24	97,125	99,806	12,04	0,034	214

Mahalliy bazalt iplaridan olovbardosh texnik to‘qima ishlab chiqarish texnologiyasini amaliyotga joriy etish natijasida yiliga 1 kv.metr to‘qima ishlab chiqarishdan 1700 so‘mdan foyda olinadi. Korxonada yillik 22973,529 kv.metr to‘qima ishlab chiqarib, iqtisodiy samaradorlik 39055 ming so‘mni tashkil etadi.

XULOSA

1. Bazalt iplari ma‘danlardan olinadigan ip olish texnologiyasi organildi va fizik-mexanik xususiyatlari tadqiq etilib, o‘ramada monofilament diametri 15 mikron bo‘lgan, chiziqli zichligiga qarab 250 tadan 4000 tagacha bo‘lgan tolalardan tashkil topishi aniqlandi. Bazalt bazanit, gabrodiabaz kabi tabiiy minerallarni va ularning aralashmalarini eritish yo‘li bilan olinadigan tabiiy xomashyo, uning tolalari yuqori haroratga chidamli, elektr izolyatsiyasi va ovoz o‘tkazmaydigan xususiyatlariga ega. Bazalt tolasining kimyoviy agressiv muhitga, ya'ni tuzlar, kislotalar, va ayniqsa, gidroksid eritmalarining ta'siriga chidamli xususiyatlari aniqlandi.

2. Bazalt ipining uzilishi paytida maksimal nisbiy cho‘zilish o‘lchovlari orasida e'tibordan chetda qolishi aniqlandi. Shundan kelib chiqqan holda bazalt iplarini nisbiy uzilish kuchini aniqlashdagi ipga berilgan taranglik kuchi ip bo‘yicha taqsimlanishi Veybull-Gnedenko nazariyasiga ko‘ra aniqlanadi.

3. Chiziqli zichligi T=80 teks bo‘lgan mahalliy bazalt iplaridan zamonaviy to‘quv dastgohida to‘qima ishlab chiqarish uchun texnologik omillarni aniqlash uslubi islab

chiqildi. Belgilangan sirt zichligi, tuzilish fazasi tartibi va to'qimani tolali material bilan to'ldirilishi boyicha olovbardosh yopqich to'qimalarni mavjud bazaviy olovbardosh to'qimalar yuza zichligi $q'_x = 180 - 220 \text{ g/m}^2$ oralig'ida loyihalash usuli ishlab chiqildi va texnologik omillari aniqlandi.

4. Mahalliy bazalt iplaridan to'quv g'altagi tayyorlashda Benninger piltalab tandalash mashinasidagi tandalash tezligining ip tarangligiga ta'siri tajribaviy tadqiqotlar olib borildi, chiziqli zichligi 80 teks bo'lgan bazalt iplarining piltalab tandalash jarayonidagi tezlik va taranglik o'zgarishiga bog'liq uzilishlari soni aniqlandi. 80 teksli bazalt iplarini piltalab tandalash jarayonida muqobil tezlik 250 m/min va taranglik miqdorlarini ipning chiziqli zichligiga mos ravishda 20 sN qilib belgilash va uni butun jarayon davomida bir me'yorda ushlab turish tavsiya etildi.

5. Tajribaviy bazalt iplarining cho'ziluvchanlik xususiyati 1% ga teng. Chiziqli zichliklari o'zgarimas 80 teks, o'rilish turlicha bo'lgan toqima namunalarini to'qima shakllanishidagi ip tarangligi tadqiq etildi. Loyihalanayotgan bir qatlamli to'qimalarni to'quv dastgohida shakllanishi jarayonida to'quv o'rilishlari ip tarangligiga sezilarli tasir etishi, ayniqsa homuza hosil qilish jarayoni tarangligi yuqori qiymatlarga ega ekanligi aniqlandi. Bunda 1 namuna uchun tanda iplarining jipslashtirish davridagi tarangligi $F_{jips} = 99,44 \text{ sN}$, homuza hosil qilishda $F_{xom} = 122 \text{ sN}$, va o'rta holat davrida $F_{or,h} = 67,48 \text{ sN}$ iborat. Polotno va uning hosilalari (2, 3 va 4 namunalar) homuza hosil qilish jarayonida ip tarangligi 122,32-123,42 sN, sarja va uning hosilalari (5,6,7 namunalar) uchun mazkur jarayonda 126,6-127,6sN, va satin, uning hosilalari (8 namuna) uchun 120,56 sN tashkil etadi. Olingan natijalarga ko'ra polotno va uning hosilalari asosida ishlab chiqarilgan 80 teksli basalt ipli to'qima tarangligi sarja va uning hosilalari bilan olingan namunalar tarangligiga nisbatan 4% yuqori, bu o'z navbatida iplarning mexanik xususiyatlariga salbiy tasir etadi. To'quv dastgohining ishlash sikli davomidagi minimal taranglik 1 namuna uchun 67 sN va uzish kuchining 8 % ini tashkil qiladi.

6. To'quv dastgohida mahalliy xomashyo bazalt iplaridan olovbardosh yopqich to'qima ishlab chiqarishda yuqori ish unumdorligiga erishish maqsadida taxtlash omillarining muqobil qiymatlari uchun ko'p omilli regressiya modeli olindi. Kiruvchi faktorlar sifatida X_1 – tanda ipining tarangligi, X_2 – skaloning holati, X_3 – o'rta holat miqdori, va chiquvchi ko'rsatkich sifatida to'quv dastgohidagi tanda ipining uzilish ko'rsatkichlari olindi. Tanda ipi tarangligi $X_1 = 25 \text{ cN}$; skaloning holati $X_2 = 5 \text{ mm}$; o'rta holat miqdori $X_3 = 15 \text{ mm}$ bo'lganda, to'quv dastgohida uzilishlar soni eng kam $Y_r = 0,506$ uzuq/m ekanligi aniqlandi.

7. Chiziqli zichligi 80 teks bazalt iplaridan olingan olovbardosh yopqich to'qimalarining asosiy xossalari, yong'inga chidamliligi, ochiq havodagi yong'inni o'chirish imkoniyati, havo o'tkazuvchanligi va mustahkamligi, ochiq olovga

chidamliligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlar GOST R 50810-95 "To'qimachilik materiallarining yong'in xavfsizligi. Dekorativ matolar. Yonuvchanlikni tekshirish usuli va tasnifi" standarti talablari asosida amalga oshirildi.

8. Olingan bazalt to'qimalari yong'in xavfsizligi xodimlari uchun olovni o'chirish maqsadida, shuningdek ustki kiyim, qo'lqop va boshqa maqsadlarda qo'llanilishi mumkin. Havo o'tkazuvchanligi bo'yicha $4,53 \text{ cm}^3/\text{cm}^2\text{cek}$, uzilish kuchi tanda bo'yicha 820 N, arqoq bo'yicha 970 N - olovbardosh to'qima namunalaridan rogojka 4/4 o'rilishida ishlab chiqarilgan to'qima o't o'chirish yopqichlari sifatida tavsiya etiladi. Sirt zichligi $190-420 \text{ g/m}^2$ bo'lgan to'qima namunalari issiqlik o'tkazuvchanligi $0,027-0,045 \text{ m}^2\text{K/Vtni}$ tashkil etadi va bu namunalardan olovbardosh to'qimalar ustki kiyim, qo'lqoplar uchun tavsiya etiladi.

9. Chizikli zichligi 80 teks bazalt iplaridan olovbardosh yopqich to'qimalarini ishlab chiqarish texnologiasini tadbiq etish bo'yicha umumiy yillik iqtisodiy samaradorlik 39055 ming so'mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЁГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

УЗОКОВ УМИД ТОЛИБОВИЧ

**СОЗДАНИЕ ОГНЕУПОРНЫХ ТКАНЕЙ ИЗ БАЗАЛЬТОВЫХ НИТЕЙ
И ИХ ВЫРАБОТКА НА БЕЗЧЕЛНОЧНОМ ТКАЦКОМ СТАНКЕ**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов
и первичная обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.2.PhD/Г3718.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.ttyesi.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Даминов Аскарали Давлатович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Матисмаилов Сайпила Лалашбаевич
доктор технических наук, профессор

Эркинов Зокиржон Эркинбой угли
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:


Джизакский политехнический институт


Защита диссертации состоится 18 марта 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности. (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5, Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 222-я аудитория, тел.: (+998 71) 253-06-06, (+998 71) 253-08-08, факс: (+998 71) 253-36-17, e-mail: titli_info@edu.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована за № 223). Адрес: г. Ташкент, ул. Шохжахон-5, тел.: (+998 71) 253-06-06, (+998 71) 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан «5» марта 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 223 от «5» марта 2025 года).




X.X. Камилова
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор


A.Z. Маматов
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор


Ш.Ш. Хакимов
Председатель Научного семинара при Научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире расширение ассортимента конкурентоспособной продукции в производстве текстильной и легкой промышленности, производство высокоэкологичной продукции с использованием природного сырья, применение новых видов сырья и методов обработки, повышение качества текстильной продукции занимают ведущие места в динамичном развитии отрасли. В глобальном масштабе на рынке текстильной и легкой промышленности прогнозируется, что стоимость производства по сравнению с 2020 годом вырастет на 26,2% к концу 2025 года, а среднегодовые темпы роста составят 6,2%, в том числе рынок технических защитных материалов вырастет на 8,8% с 2022 по 2029 годы. В этом отношении важным считается улучшение физико-механических свойств и повышение качества текстильных изделий различного смешанного состава, снижение расходов сырья, уменьшение их себестоимости за счет внедрения инноваций в производство.

В мире ведется комплексная научно-исследовательская работа по совершенствованию техники и технологии производства готовой качественной продукции, созданию ее научных основ. Приоритетными в этом направлении являются исследования, в том числе по созданию технологии производства бытовых и технических тканей из нитей смешанного волокна. В этой связи особое внимание уделяется созданию эффективных технологий, повышающих качество и конкурентоспособность тканей, разработке методов оптимизации показателей тканых изделий, созданию высокоэффективных технических средств и технологий на текстильных предприятиях.

В Республике осуществляются широкомасштабные меры по увеличению объемов производства качественной, конкурентоспособной и экспортно-ориентированной готовой продукции из местного текстильного сырья, достигаются значимые результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, в частности, намечены важные задачи: “продолжая промышленную политику, направленную на обеспечение стабильности национальной экономики и увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, увеличить производство промышленной продукции в 1,4 раза...”. В выполнении этих задач, в том числе за счет реализации кластерной модели развития, предусматривающей эффективное и полное использование отечественного сырья для производства готового текстиля и швейно-трикотажной продукции с высокой добавленной стоимостью, приобретает важное значение выпуск импортозамещающих и экспортноориентированных текстильных изделий конкурентоспособного качества.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, определенных Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 21 января 2022 года № ПП-53 «О мерах по содействию глубокой переработке и производству готовой продукции с высокой добавленной

стоимостью на текстильных и швейно-трикотажных предприятиях и ее экспорту» и других нормативных правовых документах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

Степень изученности проблемы. Проектированием технических тканей, их производством на ткацких станках и исследованием возможностей оптимального режима работы ткацкого оборудования за рубежом занимались Х. Джамшайд, Р. Мишра, Ж. Милитки, А.П. Гречухин, Н.В. Егоров. По улучшению структуры технических тканей и их физико-механических свойств проводили исследования такие ученые, как А.А. Асланян, В.А. Рыбин, Н.К. Романычев, Д.В. Поповский, В.Ю. Охломенко и другие. Исследованиями по производству технических тканей из базальтовых нитей и получению их на ткацких станках занимались Фабрицио Сарасини, Якопо Тирилло, Марко Валенте, Лука Ферранте, Сальваторе Чоффи, Сальваторе Ианначе, Луиджи Соррентино и другие.

